

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

«KELISHILGAN»

A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
akademik litseyi ijrochi direktori

B.Adizov



2023-yil

«TASDIQLAYMAN»

A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘quv
ishlari bo‘yicha prorektori

S.Normamatov



2023-yil

**3910003 – “Aniq fanlar-3 (*rasm-chizmachilik, dizayn*)”
ta’lim yo‘nalishi uchun**

**IJODIY IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(*soddalashtirilgan*)**

Dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (ToshDO‘TAU) o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2023- yil “___” _____, ___ - sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

ToshDO‘TAU akademik litseyi
ijrochi direktori B.Adizov

ToshDO‘TAU “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrası
o‘qituvchisi N.Sharipova

TTYeSI “Kostyum dizayni” kafedrası katta
o‘qituvchisi D.X.Yaxyayeva

Taqrizchi:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti
(TTYeSI) “Kostyum dizayni” kafedrası katta
o‘qituvchisi N.R.Mamatova

KIRISH

O'zbekistonda to'qimachilik va moda industriyasini rivojlanishi, kichik va o'rta biznesining davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, yuqori sifatli eksklyuziv va dizayn mahsulotlariga talabni ortishi, dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi matolar va uskunalari yangi avlodining paydo bo'lishi – bularning barchasi yangi namunadagi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo'lib, ijodiy tassavurni, obrazli-konstruktiv taffakur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun **“Chizmatasvir”** fani sifatida zaruriyati juda katta.

3910003–“Aniq fanlar-3 (dizayn: *matematika, rasm-chizmachilik*,)” ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlaridagi tasviriy san'at va dizayn fanlari dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. 3910003–“Aniq fanlar-3 (dizayn: *matematika, rasm-chizmachilik*,)” ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan 9-sinf bitiruvchilari ijodiy imtihonda chizmatasvir fanidan amaliy ishlar bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

“Chizmatasvir” fanidan jami: 62 ball.

1. “CHIZMATASVIR” FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish–bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Chizmatasvir–barcha tasviriy san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi. “Chizmatasvir” fani “Dizayn” ta'lim yo'nalishidagi talaba-o'quvchilar uchun asosiy vazifasini o'tab, ularda badiiy didlarini oshirishda muhim o'rinni egallaydi.

- 1) Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:
 - shakl va hajmni tahliliy idrok qilish va anglash qobiliyati;
 - fazoviy va konstruktiv idrok etish mahorati;
 - shaxsiy mualliflikdagi grafika ishi.
- 2) Vazifani bajarishda abituriyent quyidagilarni bilishi kerak:
 - Qog'oz yuzasiga qo'yilmani konstruktiv to'g'ri joylashtirish;
 - tasvirlanayotgan qo'yilmani nisbatlarini to'g'ri aniqlash va hajm chiqarish yechimlarini ifodalay olish.

2. 3910003 – Aniq fanlar-3 (*rasm-chizmachilik, dizayn*) ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar (9-sinf bitiruvchilari) uchun ijodiy imtihon dasturi.

“Chizmatasvir” fani bo'yicha.

Imtihonda abituriyentlar gipsli modelni (klassik haykal boshini) yoki ko'za bilan natyurmort (ko'za, ikkita yassi meva) naturadan chizmachilik asboblari va ko'rgazmali materiallardan foydalanmagan holda, grafit hamda rangli bo'yoqlarda bajaradilar.

Chizmatasvir A3 (30x40) formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) 2 soat (120 minut) mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning chizmatasvir ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosidagi **62** balli shkala bo'yicha baholanadi.

1. Chizmatasvir bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi.
2. Imtihon jarayonlariga abituriyentning harorati tekshirilib so'ngra dezinfeksiya qilingan auditoriyalarga guruh nazoratchisi hamrohligida kiritiladi.
3. Auditoriyada abituriyentlar bir-biridan kamida **1-2 metr** masofa oralig'ida joylashtiriladi (*auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi*).
4. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan muhrlangan qog'oz (A3) beriladi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.
5. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va ID karta (yoki tug'ilganlik guvohnomasi) asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi.
6. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.
7. Abituriyent imtihonga kelgach dastlab raqam tanlaydi va shu raqamdagi ish joyiga borib o'tiradi.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarni olib kelishi shart:

- turli och-to'qlikdagi grafit qalamlar hamda bo'yoqlar
- o'chirg'ichlar;
- (A3) 30x40 hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;
- qalam ochish uchun mo'ljallangan maxsus ochqichlar;
- qalamni o'tkirlash uchun ingichka jilvir qog'oz.

8. Har bir abituriyentning chizmatasvir vazifasini bajarish uchun qog'oz (vatman) tortilgan planshetga qabul komissiyasining maxsus shtampi uriladi.

9. Abituriyentlarga bajargan ishga imzo, biror bir belgi qo'yish va su'ratga olish qat'iyan taqiqlanadi.

10. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlariga asosan ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar ham so'z bilan, ham raqam bilan qog'ozning ish bajarilgan tomoniga qo'yiladi.

11. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko‘chiriladi. Chizmatasvir bo‘yicha imtihon bahosi natijalari 1 kun muddatda universitet hamda akademik litsey rasmiy “web-saytida” e‘lon qilinadi.

12. Baholangan ishlar apellyatsiya o‘tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha abituriyent (9-sinf bitiruvchilari)
tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

№	Mezonlar	Maksimal ball	O‘quvchi to‘plagan ball
1	Tasvirni qog‘oz planshetga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish:	8	
a)	tasvir qog‘oz planshetga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirilgan	5	
b)	qisman kompozitsion xatoga yo‘l qo‘yilgan	3	
c)	to‘g‘ri komponovkaning yo‘qligiga	0	
2	Geometrik shakllarni konstruktiv tuzilishlari va proporsiyalari to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	9	
a)	konstruktiv tuzilishlari yengil chiziqlar orqali to‘g‘ri ko‘rsatilgan, talab darajasida	7	
b)	buyumlarning konstruktiv tuzilishlarini yengil chiziqlar orqali ko‘rsatishga harakat qilingan, kamchiliklar mavjud	5	
c)	buyumlarning konstruktiv tuzilishlari yengil chiziqlar orqali ko‘rsatilmagan	3	
d)	buyumlarning konstruktiv tuzilishlari noto‘g‘ri bajarilgan	0	
3	Perspektiva qoidalariga amal qilinganligi	9	
a)	perspektiva qurilish chiziqlari yengil chiziqlarda to‘g‘ri ko‘rsatilgan	6	
b)	perspektiva qurilishi chiziqlarini yengil chiziqlarda ko‘rsatishga harakat qilingan, ammo kamchiliklar mavjud	3	
c)	perspektiva qoidalariga amal qilinmagan (xato ko‘rsatilgan)	0	
4	Soya-yorug‘ qonuniyatlarini to‘liq ifodalash va tus munosabatlarini aniqlash	9	
a)	soya–yorug‘lik va refleks qonuniyatlariga amal qilingan, ular tasviri bo‘yoqlar yordamida soya to‘g‘ri bajarilgan	7	

B)	buyum sirtidagi va ular atrofidagi soya–yorug‘lik va reflekslar chegarasi qalamda hamda bo‘yoqlarda shartli topilgan, ammo to‘liq bajarilmagan	5	
c)	buyumlar sirtidagi va ular atrofidagi soya –yorug‘lik va reflekslarni bo‘yoqlar yordamida to‘g‘ri ko‘rsatishga harakat qilingan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	3	
d)	soya–yorug‘lik bo‘yoqlar va refleks qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular noto‘g‘ri ko‘rsatilgan	0	
5	Buyumlarni hajmlari to‘g‘ri aks ettirilganligi	9	
a)	buyum hajmlari to‘g‘ri aks ettirilgan	7	
B)	Buyum hajmlarini to‘g‘ri ko‘rsatishga harakat qilingan, ammo kamchiliklar mavjud	5	
c)	buyumdagi hajmlarini aks ettirishda jiddiy kamchiliklar mavjud	3	
d)	buyumdagi hajmlari umuman ko‘rsatilmagan	0	
6	Fon bilan buyumning shakli to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	9	
a)	fon bilan buyumning shakli to‘g‘ri aks ettirilgan	6	
B)	fon bilan buyumning shakli to‘g‘ri ko‘rsatishga harakat qilingan, ammo kamchiliklar mavjud	3	
c)	fon bilan buyumning shakli noto‘g‘ri ko‘rsatilgan	0	
7	Tasvirni yaxlit holatga keltirib ishni grafik jihatdan umumlashtirish va yakunlash	9	
a)	tasvir to‘liq umumlashtirilgan va yakunlangan	6	
B)	tasvir qisman umumlashtirilgan va yakunlangan	3	
c)	qo‘yilmadagi buyumlarni detallari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan bo‘lsa	0	
	Jami	62	

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar (9-sinf bitiruvchilari) eng yuqori **62 ballga** ega bo‘ladi.

Qo‘shimcha aniqliklar gradatsiyasi uchun baholash shkalasini kengaytirish maqsadida 1,0 ballga karrali baholash qo‘llaniladi.

Ijodiy imtihonlar bo‘yicha ijodiy sinovlar o‘tkazuvchi komissiya a‘zolari mutaxassis fan o‘qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

3. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar (9-sinf bitiruvchilari) tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha akademik litsey qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Bunda apellyatsiya komissiyasi tomonidan abituriyentning ijodiy imtihoniga qo'yilgan ballning to'g'riligiga baho beradi va uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi hamda 24 soat ichida murojaatchiga yetkaziladi. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.